



UO'T: 937:635:.64:632.2.7:

GULKARAMNING XUSUSIYATLARI VA UNDA UCHRAYDIGAN ZARARKUNANDALAR

Mamatov Kamol Shavqievich 

Mehruz Shavkatov 

SPEvaKITI

Annotatsiya. Ushbu maqolada gulkaramning ahamiyati va yetishtirilish bo'yicha adabiyotlar tahlili hamda gulkaramda uchraydigan so'ruvchi zararkunandalar kelitradigan zarari ularga qarshi qo'llanilgan kimyoviy preparatlarning biologik samadorligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Sabzavot, gulkaram, yetishtirish, kasallik, zararkunanda, shira, trips, oqqanot, zarar, preparat samara.

Abstract. This article presents an analysis of the importance of cauliflower and a review of the literature on its cultivation, as well as an assessment of the damage caused by sucking pests occurring in cauliflower crops and the biological effectiveness of chemical preparations used against them.

Keywords: vegetables, cauliflower, field, cultivation, disease, pest, aphid, thrips, whitefly, damage, preparation efficiency.

Аннотация. В данной статье проанализированы значение цветной капусты и литературные источники по её возделыванию, а также рассмотрен вред, причиняемый сосущими вредителями цветной капусты, и проанализирована биологическая эффективность применённых против них химических препаратов.

Ключевые слова: Овощи, цветная капуста, выращивание, болезнь, вредитель, тля трипс, белокрылка, вред, эффективность препарата

KIRISH

Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, gulkaram qimmatli va qadimdan yetishtirib kelinayotgan sabzavot ekinlaridan biridir. Uning dastlabki shakllari Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi qator Yevropa mamlakatlarida yetishtirib kelingan. Ushbu ekin turi XVII asrga kelib madaniy ekin sifatida Germaniya, Gollandiya, Daniyada, XVIII asrning oxirlariga kelib esa Rossiyada yetishtirila boshlagan .



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Gulkaram (*Brassica oleracea* convar. *botrytis* (L.) Alef.var. *botrytis* L.) O'rtaer dengizi sharqiy hududlarida uchraydigan *Brassica cretica* Lam. turidan kelib chiqqanligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Gulkaramning turli xil formalarining shakllanishi birlamchi markazi Italiya hisoblanadi va u yerdan Fransiya, Angliya va Yevropaning boshqa mamlakatlariga kirib borgan. XVII asrda qishloq xo'jaligi ekini sifatida Germaniya, Gollandiya, Daniyada yetishtirilgan va XVIII asr oxirida Rossiyada yetishtirila boshlangan. O'zbekistonda u keyingi 30 yilda yetishtirila boshlangan va so'nggi 5-10 yilda uning maydoni kengayib bormoqda.

Dunyo miqyosida 400000 ga maydonda gulkaram yetishtirilib, uning asosiy qismi Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Gollandiya va Hindiston kabi mamlakatlar zimmasiga to'g'ri keladi. Hozirgi paytda dunyo bo'yicha gulkaram yetishtirish 4,3-4,5 mln tonnani tashkil etmoqda. Hozirgi sharoitda iste'molchining sabzavot mahsulotlarining sifati va tarkibining qimmatliligiga sabzavot ekinlarining kasallik va zararkunandalarga chidamli, yuqori hosil beradigan, ayniqsa oziqaboplik va texnologik sifati yuqori bo'lgan nav va duragaylarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Gulkaram O'zbekistonda aholi tomonidan keyingi 15-20 yillarda yetishtirib iste'mol qilinayotgan yangi ekin. U barcha karam turlari ichida kishi organizmiga eng oson singadigan va g'oyat foydali sabzavotdir. Hozirgi kunga kelib yilning hamma mavsumida xalqimizning ushbu sabzavotga bo'lgan ehtiyoji ortib bormoqda. Shuning uchun gulkaram sabzavotkor xo'jaliklar va shaxsiy tomorqalarda ko'plab yetishtirilmoqda. Shunga qaramasdan respublikamiz sharoitiga mos mahalliy navlar va ularni yetishtirish texnologiyasi bo'yicha yetarlicha tavsiyalarning yo'qligi uning kam tarqalishi va hosildorligining past bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Karam turlari ichida tarkibining qimmatliligi bo'yicha gulkaram birinchi o'rinlarda turadi. Uning boshida 9,65% quruq moddalar, 1,2-5,0% qand, 1,4% gacha kletchatka, 1,5-3,3% oqsil mavjud. Oqsildagi aminokislotalar tarkibi, sifati, miqdori va nisbati jihatidan mol go'shtidan qolishmaydi. Gulkaram tarkibidagi almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar uning qimmatliligini yanada oshiradi. Shuningdek, u S, V₁, V₂, V₆, V₉, V₁₂, RR vitaminlariga, foliy kislotasi va kaliy, fosfor, kalsiy, natriy, magniy, temir mineral moddalariga juda boy. Ayrim ilmiy adabiyotlarda gulkaramning bosh qismida boshqa sabzavotlarda uchramaydigan N vitamini mavjud bo'lib, u inson asab tizimini tinchlantirishga va ruhiyatini ko'tarishga yordam berishi qayd etilgan [1].

Bugungi kunda gulkaramda shira, trips, oqqanot kabi so'ruvchi zararkunandalar zarar keltirib, hosildorlikka sezilarli darajada zarar keltirishi mutaxassislar tomonidan qayd etilmoqda.

Issiqxona oqqanoti gulkaramda asosiy zararkunanda hisoblanib, uning lichinkalari o'simlik bargining orqasiga yopishib olib, ularning shirasini so'rib oziqlanadi. Ular harakatsiz holatda hayot kechiradi. Issiqxona oqqanoti tropik tur bo'lib, asosan himoyalangan maydonda erta bahordan kech kuzgacha rivojlanadi. O'zbekiston sharoitida ochiq maydonda ham tarqalib, sabzavot ekinlarini kuchli

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

zararlaydi. Himoyalangan va pana joylarda qishlovdan chiqadi. O'zbekiston janubidagi o'simliklar, qishda ham o'z vegetatsiyasini davom ettiradigan sharoitlarda, ochiq maydonda ham bemalol qishlovdan chiqa oladi. Yil davomida 9-10 ta avlod beradi [2].

Gulkaram bargidagi oqqanotning lichinkalaridan chiqqan chiqitlarda saprofit zamburug'lar rivojlanib, o'simlikning barg va mevalarni qoraytiradi va kuchli zararlanish natijasida barglar qurib qolib, hosili esa iste'molga yaroqsiz bo'lib qoladi.

Shiralar gulkaramda barglardagi hujayralarining shirasini so'rishi natijasida poya va ildizlardagi mavjud bo'lgan uglevodlar miqdorining keskin kamayib ketishi oqibatida hosilning ta'mi o'zgaradi. Qattiq zararlangan barglar diformatsiyaga uchrab, shakli o'zgaradi va buralib qoladi. Shu bilan bir qatorda barglarda hosil bo'lgan shiralar mog'orlanib, fotosintez jarayoni buziladi.



A



B



B



Г

Rasm. Gulkaram bargi:

A-shira, B-oqqanot, V- tripsning hosildagi zarari, G- zararlanmagan hosil.

Gulkaramda trips ham kuchli zarar keltiradi. tripsning imago va lichinkalari asosan o'simlikning barg va o'simlik mevalarini shirasini so'rish hisobiga oziqlanib zarar keltiradi. Oziqlanishi ta'sirida o'simlik rivojlanishdan orqada qoladi, o'simlikda bu zararkunanda kuchli miqdorda tarqalganda o'simlik to'liq nobud bo'lish holati kuzatiladi. Tripsning zarari natijasida bargning ustki qismi bujmayadi, u rangsizlanib, to'qimalarida nekroz alomatlari yuz beradi. Zararlangan o'simlikda

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

zararkunanda chiqindisi aniq ko'rinib turadi. Bundan tashqari o'simlikni o'zidan ajratib chiqargan qora yopishqoq chiqindisida qora mog'or paydo bo'lib, o'simlik bargi ifloslanadi (rasm)

Gulkaram o'simligida so'ruvchi zararkunandalar (oqqanot, shira va trips)ga qarshi dastlabki kichik dala tajribalarimizda asetomepid 20% n.kuk.(0,15-0,2 l/ga), hamda bifentrin 10% em.k. (0,3l/ga) asosli preparatlar qo'llanilganda biologik samaradorlik 85,7-95,3% yetganligi aniqlandi va bu natijalarni tasdiqlash uchun katta dala tajribalarda qo'llashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Арамов М. Х. “Гулкарам уетиштириш” 100 китоб то'плами 26-китоб “COLORPACK” МСhЖ. Тошкент-2021.-Б.35.
2. Литвинов С.С. Эффективные приемы выращивания овощных культур. Москва, 1998. Тошкент, 2023. 45-68-с.
3. Низомов Р.А. ва бошқ. “Сабзаёт экинларини етиштириш агротехнологиялария бо'йисча тавсиялар” (Е.Е.Лян, Р.А.Хакимов, В.В.Ким, К.Ш.Маматов) “COLORPACK” МСhЖ. Тошкент-2025.-Б.24.